O'ZBEKISTON

VETERINARIYA MEDITSINASI

3
2023
MART
ISSN 2091-554-3

TIBBIYOT INSONNI
VETERINARIYA INSONIYATNI ASRAYDI

– Ҳаётимизни аёлларнинг ширин сўзи, саранжом-саришталиги, шижоатисиз тасаввурга сиғдириб бўлмайди. Аёл – она, оқила уй бекаси, ишда тартибли, зукко мутахассис, ёшларга меҳрибон устоз. Буни қадрламай бўладими, – дейди Андижон вилоят ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш бошқармаси бошлиғи Дилмуроджон Қаюмов. – Шу боис 8 март – Халқаро хотин-қизлар кунида ҳам, Наврўз айёмида ҳам бошқармамиз тизимидаги 41 нафар хотин-қизларнинг ҳар бирини алоҳида эътироф этдик, уларни қизғин табрикладик. Ўйлайманки,бу саъй-ҳаракатимиз келажакда ўз мевасини беради, иш самарадорлиги янада ошади.

Таҳририят кенгаши:
Х.Б.Юнусов – СамДВМЧБУ ректори, профессор (раис)
Ж.А.Азимов – ЎзР ФА академиги (аъзо)
Б.Т.Норқобилов – Ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш кўмигаси раиси (аъзо)
А.И.Ятусевич – РФА академиги (аъзо)
Е.Д.Джавадов – РФА академиги (аъзо)
Ю.А.Юлдашбаев – РФА академиги (аъзо)
Д.А.Девришов – РФА мухбир аъзоси (аъзо)
С.В.Шабунин – РФА академиги (аъзо)
К.В.Племишов – РФА мухбир аъзоси (аъзо)
С.В.Позябин – профессор (аъзо)
Ш.А.Жабборов – профессор (аъзо)
А.О.Орипов – профессор (аъзо)

Таҳрир ҳайъати:
Ҳ.Салимов – профессор
Қ.Норбоев – профессор
А.Даминов – профессор
Р.Б.Давлатов – профессор
Б.Бакиров – профессор
Б.М.Эшбуриев – профессор
Н.Б.Дилмуродов – профессор
Ф.Акрамова – б.ф.д., профессор
Б.А.Элмуродов – профессор
А.Г. Ғафуров – профессор
Н.Э.Юлдашев – профессор
Х.Б.Ниёзов – профессор
Б.Д.Нарзиев – профессор
Р.Ф.Рўзиқулов – профессор
А.А.Белко – ВДВМА доценти
Д.И.Федотов – ВДВМА доценти
Х.К.Базаров – доцент
Ш.Х.Қурбонов – доцент
Ж. Б.Юлчиев – доцент
О.Э.Ачилов – в.ф.ф.д. (PhD)

Бош муҳаррир вазифасини бажарувчи:
Абдунаби АЛИҚУЛОВ
Мухаррир:
Дилшод Юлдашев
Дизайнер:
Ҳусан САФАРАЛИЕВ
Лойиҳа ташаббускори ва раҳбари:
Ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш қўмитаси
Муассислар:
Ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш қўмитаси, "AGROZOOVETSERVIS" масъулияти чекланган жамияти
Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигида 2018 йил 2 февралда 0284-рақам билан рўйхатга олинган
Журнал 2007 йил сентябрдан чоп этилмоқда
Манзил:100070, Тошкент шаҳри, Усмон Носир, 22.
Таҳририят манзили: 100022, Тошкент шаҳри, Қушбеги кўчаси, 22-уй
Тел.: **99** 307-01-68,
Фақат телеграмм учун **97** 770-22-35.
E-mail: zooveterinariya@mail.ru
www.Vetmed.uz
Адади 3640. Нашр индекси:1162
Босишга рухсат этилди: 27.03.2023.
Бичими 60x84 1/8. Офсет усулида чоп этилди. 4,25 б.т. Буюртма №4 .
Баҳоси келишилган нархда.
© Veterinariya meditsinasi, #3 (184)2023 "PRINT-MAKON" МЧЖ босмахонасида чоп этилди.
Чилонзор тумани, 25-мавзе, 47-уй, 45-хонадон.

Соҳамиз фидойилари
А.Аликулов – Ўқиган ўзади, касбидан қадр топади..... 3

Юқумли касалликлар
Б.А.Элмурадов, И.Ю.Султанова – Қуёнлар колибактериоз ва сальмонеллёз аралаш инфекциясида гематологик кўрсаткичлар, патологоанатомик ўзгаришлар ва дифференциал диагностикаси 5

Паразитар касалликлар
К.Х.Уроков, Н.И.Маматкулова, Л. Х. Яхшибоева, А.С.Даминов – Самарқанд вилояти шароитида турли ҳайвонлар орасида эхинококкознинг тарқалиши..... 8
Z.I.Alikulov, S.M.Aminjonov – Qo'ylarning asosiy sestodozlar bilan zararlanishi..... 11
А.Джумамуратов, Б.Қутбаев, О.Алланиязов – Қорақалпоғистон шароитида йирик шохли моллар гиподерматоз касаллигининг тери маҳсулотлари сифатига салбий таъсири ва унга қарши курашиш чора-тадбирлари..... 13

Акушерлик ва гинекология
B.H.Zayniddinov, K.R.Bekmuratov, A.G'.Jabborov, B.Narziyev –Itlarda qinning chiqib qolishining sabablari va operatsiya o'tkazish texnikasi..... 16

Анатомия ва патфизиология
O.A.Djurayev – Otlar, parrandalar, go'shtxo'r va hammaxo'r hayvonlar jasadlarini patologoanatomik yorib tekshirishdagi o'ziga xos xususiyatlar..... 18

Ветеринария ва санитария
Т.Т.Хатамов, О.Э.Ачилов – "Биостимвет" препарати қўлланилган қуёнлар гўшти сифатига ветеринария-санитария жиҳатидан баҳо бериш 21

Зоогигиена ва озиқлантириш
М.И.Каримжонова – Ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларда хизмат итини махсус йўналишда тайёрлаш борасида халқаро тажрибалар таҳлили..... 24

Лаборатория амалиёти
U.T.Qarshiyev, Z.M.Yusupova, S.B.Eshburiyev – Quyonlarda kalsiy-fosfor almashinuvi buzilishlarining gematologik ko'rsatkichlari 26
Т.Қ.Ғазнақулов, М.М.Алламурадова – Паррандаларнинг Ньюкасл касаллиги ва иммунитет фаоллигини ГАТР (гемагглютинацияни тўхтатиш реакцияси) ёрдамида ўрганиш натижалари..... 29
Д.Қ.Юлдошев, Ф.С.Аллашов – Қуёнлар қонининг морфологик ва биокимёвий кўрсаткичлари 32

Тавсиявий мақола
С.У.Туляганов, М.А.Балиев – Отларнинг миозит касаллиги олдини олиш бўйича умумий тавсиялар..... 34

UDK: 619:636.92:591.13:591.11

S.B.Eshburiyev, *ilmiy rahbar, v.f.d., dotsent,*
U.T.Qarshiyev, *mustaqil izlanuvchi,* **Z.M. Yusupova,** *talaba,*
SAMDVMCHBU

QUYONLARDA KALSIY-FOSFOR ALMASHINUVI BUZILISHLARIDA GEMATOLOGIK KO‘RSATKICHLAR

Аннотация

В данной статье описаны особенности нарушений фосфорно-кальциевого обмена у кроликов, в частности, гематологические показатели и симптомы заболеваний у крольчих в период беременности и послеродового периода, 20-40-дневный период жизни крольчат. Нарушения фосфорно-кальциевого обмена регистрировали в среднем у 40 % крольчих в периоде сукрольности, у 60 % крольчат в постнатальном периоде, у которых отмечается снижение реакции на внешние воздействия, изменение аппетита, взъерошенность кожного покрова, уменьшение блеска, ярко выраженная анемичность (бледность) слизистых оболочек.

Abstract

This article describes the features of disorders of phosphorus-calcium metabolism in rabbits, in particular, hematological parameters and symptoms of diseases in rabbits during pregnancy and the postpartum period and in the 20-40-day period of life of rabbits. Violations of phosphorus-calcium metabolism in rabbits were recorded on average in 40% of rabbits in the period of pregnancy, in 60% of rabbits in the postnatal period, which have a decrease in response to external influences, changes in appetite, ruffled skin, a decrease in luster, pronounced anemia (pallor) mucous membranes.

Kalit so‘zlar: *quyon, anemiya, kalsiy, fosfor, gemoglobin, glyukoza, umumiy oqsil, gipogemoglobinemiya, gipoglikemiya, gipokalsiyemiya va gipofosforemiya.*

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamizda chorvachilikni, xususan, quyonchilikni rivojlantirish bo‘yicha bir qator qarorlar qabul qilingan. Jumladan, Prezidentimizning 2021-yil 3-martdagi PQ 5017-sonli “Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida quyonchilik ozuqa bazasini mustahkamlash, to‘la qiymatli, yuqori oqsilli ozuqalar ishlab chiqarish uchun yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish va mavjudlarini modernizasiya qilish, quyonchilik mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash yo‘li bilan sohani jadal rivojlantirish, mavjud muammolarni hal etish borasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, ishlab chiqilgan yangi zamonaviy innovasion texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etish nazarda tutilgan.

Bugungi kunda quyonchilik katta e’tibor qaratilayotgan sohalardan biri hisoblanadi, shuning uchun ona quyonlarni sifatli oziqlantirish ulardan sog‘lom nasl olishda muhim ahamiyatga ega. Quyonlarning bo‘g‘ozlik davrida to‘yimliligi past, sifatsiz ozuqalar bilan oziqlantirish, ona quyonlar organizmining vitaminlar, makro va mikroelementlarga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘liq qondirilmasligi ularda modda almashinuvlarining buzilishlariga sabab bo‘ladi. Quyonlarda uchraydigan mineral moddalar almashinuvi buzilishlarini barvaqt diagnostika qilish, oldini olish usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb hisoblanadi.

Quyonchilik tarmog‘iga jadal oziqlantirish texnologiyalarining joriy etilishi quyonlar organizmiga texnogen va mikrobiologik omillarning ta’siri oshishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida ovqat hazm qilish tizimi funksional faoliyati va modda almashinuvi buzilishlariga sabab bo‘ladi. Ushbu patologiyalarni quyonlar ozuqa ratsioniga probiotikli-granula holidagi yemlarni qo‘shib berishi orqali oldini olish mumkin [1,4].

Fosfor elementi quyonlar organizmida muhim fiziologik jarayonlarda ishtirok etib, moddalar almashinuvlarini fiziologik me’yorlarda kechishini ta’minlaydi. Fosfor yetishmaganda quyonlar organizmida kalsiy va fosfor almashinuvi buziladi, tabiiy rezistentligi pasayadi, ular o‘sishdan qoladi hamda reproduktiv xususiyatlari pasayadi [6].

Quyonlarda kalsiy-fosfor almashinuvi buzilishi turli metabolitik jarayonlarning izdan chiqishiga olib keladi. Qon zardobidagi kalsiy va fosfor miqdorlari kamayadi. Gipofiz, qalqonsimon bez faoliyati hamda oqsil, yog‘, uglevod va energiya almashinuvi buziladi [2,4].

Quyonlar bo‘g‘ozlik davrida mineral almashinuvi jadal kechadi. Bu paytda vitamin D ning yetishmasligida mineral moddalarni osteoid to‘qimalarda assimilyasiyasi buziladi. Natijada suyak o‘rnida tog‘ay o‘sadi, skeletning deformasiyasi kuzatiladi, suyak to‘qimasining fizik xususiyatlari va kimyoviy tarkibida chuqur o‘zgarishlar, skelet va yumshoq muskullar, nerv tizimi, yurak-qon tomir, ovqat hazmlanish tizimi funksiyasining buzilishi kuzatiladi [5,7].

Tadqiqotlar joyi, obyekti va uslublari. Tadqiqotlarning eksperimental qismi Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanidagi “Kumushkent humo-qushi” fermer xo‘jaligiga qarashli vilikan zotiga mansub 10 bosh quyonlarda o‘tkazildi. Quyonlar organizmida kalsiy va fosfor almashinuvi buzulishlarida gematologik o‘zgarishlarni aniqlash maqsadida 5 oylik quyonlarda bo‘g‘ozlikning 20- 30- kunlari va tug‘ishdan keyingi 10-kuni, ulardan tug‘ilgan bolalarida 20-30 va 40 kunliklarida klinik va gematologik tekshirishlar o‘tkazildi. Quyon bolalarining o‘sish davrida raxitning rivojlanish belgilari o‘rganildi.

Quyonlardan olingan qon namunalarida laborator tekshirishlar SamDVMCHBU “Parranda, baliq, asalari va mo‘ynali hayvonlar kasalliklari” kafedrasidagi “OPTA-TECH” kafedralararo laboratoriyasida, “Ichki yuqumsiz kasalliklar” kafedrasining “Gematologiya” laboratoriyasida, qonning ayrim biokimyoviy ko‘rsatkichlari 2-son shahar poliklinikasida “Genru GS300 Plus va CYANSmart” apparatlarida ekspress usulida aniqlandi [3].



1-rasm. Ona quyonlarning gematologik ko‘rsatkichlari.



2-rasm. Quyon bolalarining gematologik ko‘rsatkichlari.

Olingan natijalar tahlili. Tekshirish boshida deyarli barcha quyonlarda ishtahaning pasayishi, shilliq pardalarning oqarishi, semizlik darajasining o‘rtadan pastligi, bo‘g‘ozlikning 30-kuniga kelib, 6 bosh (40%) quyonlarda tashqi ta’sirotlarga javob reaksiyasining pasayishi, teri qoplamasining xurpayishi, yaltiroqligining pasayishi kuzatilgan bo‘lsa, tuqqandan keyingi 10- kuniga kelib, quyonlarning 9 boshida (60%) shilliq pardalarning kuchli darajada oqarishi, ishtahaning o‘zgarishi kabi belgilar bilan xarakterlandi. Bundan ko‘rinib turibdiki, quyonlarda bo‘g‘ozlikning oxirlashib borishi bilan ularda mineral moddalar almashinuvi buzilishlari chuqurlashib borishi xarakterli bo‘ldi.

Quyonlar qonidagi gemoglobin miqdori bo‘g‘ozlikning 20-kunligida o‘rtacha11,5±3,1 g/% ni 30-kunligida o‘rtacha 10,9±3,9 g/% ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich tug‘ushdan keyingi 10-kunida o‘rtacha 9,4±2,3 g/% gacha kamayishi aniqlandi.

Qon zardobidagi umumiy oqsil miqdori quyonlar bo‘g‘ozligining 20- kunida o‘rtacha 50,71±1,79 g/l ni, 30-kunida o‘rtacha 50,28±1,77 ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkichni tug‘ishdan keyingi 10- kuni o‘rtacha 48,51±1,65 g/l gacha kamayishi aniqlandi.

Quyonlar qonidagi glyukoza miqdori bo‘g‘ozlikni 20-kunida o‘rtacha 3,64±0,560 mmol/lni, 30-kuni o‘rtacha 3,16±0,541 mmol/l ni tashkil etgan bo‘lsa bu ko‘rsatkich tug‘ishdan keyingi 10-kunida o‘rtacha 2,91±0,500 mmol/l gacha kamayishi xarakterli bo‘ldi.

Anorganik fosfor miqdori bo‘g‘ozlikning 20-kuni o‘rtacha 2,6±0,070 mmol/l ni, 30-kuni o‘rtacha1,2±0,051 mmol/l ni tashkil etgan bo‘lsa, tug‘ishdan keyingi 10- kuni o‘rtacha 1,1±0,037 mmol/l gacha kamayib borishi kuzatildi. Umumiy kalsiy shunga mos holda o‘rtacha 3,21±0,211 mmol/l, 2,15±0,189 mmol/l, 1,87±0,044 mmol/l ni tashkil etdi (1-jadval). Bunday holatni ona quyonlar organizmida embrionlarning rivojlanishi bilan mineral moddalarga bo‘lgan talabning oshishi bilan izohlash mumkin.

Quyon bolalarida klinik tekshirishlar natijasiga ko‘ra, ularda tana qoplamasining hurpayishi, anemiya belgilari, 35 – kunlariga borganda 50-60% quyonlarda raxit belgilaridan oyoq suyaklarining deformasiyasi, tishlarning yaxshi rivojlanmasligi, qovurg‘a suyaklari palpasiyada og‘riqli va bo‘rtiqlar borligi aniqlandi.

Quyonlardan qon olish va tekshirish jarayoni.

Quyon bolalarining gematologik ko‘rsatkichlari tahliliga ko‘ra, gemoglobin miqdori 20 kunligida o‘rtacha 12,2±2,4 g/%ni, 30 kunligida – 11,4±2,7 g/% ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 40 kunligida – 9,3±2,1 g/% gacha kamayishi xarakterli bo‘ldi.

Qon zardobidagi umumiy oqsil miqdori quyon bolalarining 20 kunligi – 53,54±1,75 g/l ni, 30 kunligida o‘rtacha 51,58 ±1,77 g/l ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 40 kunligida – 50,53±1,62 g/l gacha kamayishi aniqlandi.

Qondagi glyukoza miqdori quyon bolalarining 20 kunligida o‘rtacha 3,29±0,571 mmol/lni, 30 kunligida – 3,02±0,549 mmol/lni tashkil etgan bo‘lsa bu ko‘rsatkich 40 kunligida o‘rtacha 2,95±0,510 mmol/l gacha, umumiy kalsiy miqdori 20- kunligida – 2,56±0,19 mmol/l ni, 30 kunligida – 2,13±0,186 mmol/lni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 40 kunligida – 1,85±0,042 mmol/l gacha kamayishi xarakterli bo‘ldi.

Anorganik fosfor miqdori quyon bolalarining 20 kunligida – 2,1±0,068 mmol/l ni, 30 kunligida – 1,8±0,054 mmol/l ni tashkil etgan bo‘lsa, 40 kunligida – 1,2±0,035 mmol/l gacha kamayib borishi kuzatildi (2-jadval). Bunday holatni o‘sish davridagi quyon bolalari organizmida mineral moddalarga bo‘lgan talabning oshishi hamda ular organizmida gipogemoglobinemiya, gipoglikemiya, gipokalsiyemiya va gipofosforemiya kuzatilayotganligi bilan izohlash mumkin.

Xulosa

1. Quyonlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlari tashqi ta’sirotlarga javob reaksiyasining pasayishi, teri qoplamasining xurpayishi, yaltiroqlikning pasayishi, shilliq pardalarning kuchli darajada oqarishi, ishtahaning o‘zgarishi, suyaklar deformasiyasi kabi belgilar bilan xarakterlanadi.

2. Ona quyonlarning bo‘g‘ozlik davrida qondagi gemoglobin miqdori dastlabki ko‘rsatkichlarga nisbatan o‘rtacha 2,1 g% ga, quyon bolalarida esa 2,7 g% ga, umumiy oqsilni shunga mos ravishda o‘rtacha 2,2 g/l va 3,1g/l ga, glyukozani 0,33 mmol/l va 0,34 mmol/ga, umumiy kalsiyni 0,34 mmol/l va 0,35 mmol/lga, anorganik fosforni 1,5 mmol/l va 0,9 mmol/l ga kamayishi bilan kechadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Балакирев Н.А. Кролиководство / Н.А. Балакирев, Й.А. Тинаева. - М.: Колос, -2006. -232 с.

2. Кашапова Р.А Гематологические показатели у кроликов, содержащихся в различных условиях загрязнения окружающей среды. Автореф.канд.дисс. 2007. стр.15.

3. Методы ветеринарной клинической лабораторной диагностики: Справочник/ под ред. проф. И.П.Кондрахина. – М.: Колос, 2004. - С. 520.

4. Васильченко Г.В. Физиологическое состояние кроликов, биохимические показатели их тканей и органов после применения водно-дисперсных форм каротинсодержащих и витаминных препаратов: Автореф. дис. ... канд. биол. наук. – Белгород, 2005 138 с.

5. Sobir, E. (2016). Etiopathogenesis and symptoms of vitamin–mineral metabolism violation in cows. *International Journal of Appliyed Research*, *2*(6), 265-267.

6. Eshburiyev, S.B., Qarshiyev, U.T., & Yusupova, Z. (2022). Prophylaxis of mineral metabolism disorders in rabbits. *Agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy jurnali*, 399-402.

7. Karshiev, U.T., Eshburiev, S. B., & Yusupova, Z.M. Etiopathogenesis of Calcium–Phosphorus Metabolism in Rabbits. *International Journal of Current Science Research and Review. ISSN*, 2581-8341.

Тошкент вилояти.

– Магистратурада ўқиш жараёнида сездикки, илмий иш қилган киши асло кам бўлмайди. Меҳрибон устоз, тиришқоқлик, қунт ва сабр албатта ўз натижасини беради. Шу боис ҳозирданоқ мавзу танлаб илмий тадқиқотлар бошлашга киришдим, – дейди Юқори Чирчиқ туман ҳайвонлар касалликлари ташхиси ва озиқ-овқат маҳсулотлари хавфсизлиги маркази директори Зоирхўжа Турсунбоев. – Танланган мавзу бўйича бирор нарсани тушунмасам ё маслаҳат зарур бўлса устозим университет доценти Хожиакбар Эркабоевич Отабоевга юзланаман. У эринмасдан тушунтиради, йўл-йўриқ кўрсатади ҳам. Аслида Хожиакбар Эркабоевич ишда ҳам илмда ҳам менга ўрнак. У туман ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш бўлимига раҳбар бўлиб келгач ишхона янги қиёфага кирди, ҳовлимиз гулга бурканди. Байрамлар жуда кўтаринки ўтадиган бўлди. Жамоадаги аҳилликни айтмайсиз. Бир сўз билан айтганда мана шундай адолатли инсонлар билан ишлаб чарчамайсиз, ютуқлар ҳам ўз-ўзидан келаверади. Шу боис ҳар тонг ишхонага ошиқаман, ўқишга ҳам ишга ҳам бемалол ургуряпман. Журналда бу ҳақда ёзар бўлсангиз таъкидлаб қўйинг, шогирдлар бахтига устозлар омон бўлсин.